

## **ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATIDA KO'CHIMLARNING YUZAGA CHIQISHI USULLARI**

**Rajabov To'xtamurod Abdullayevich**

(BuxDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi)

Munavvara Yoqubbekova o'zining ilmiy ishida o'xshatishlarni ikki turga bo'ladi. Badiiy ko'chimlarni ham yuzaga kelishini **an'anaviy va favqulodda ko'chimlarga** ajratib o'rganish maqsadga muvofiq.

An'anaviy ko'chimlar nafaqat zamonaviy, balki mumtoz she'riyatimizda, qolaversa, folklorda uchrashini ham bilamiz. Bu ko'chim jonli so'zlashuv tili va muloqot vositasiga aylangani shoirlar ijodiga kirishini tezlashtiradi. An'anaviy ko'chimlar har bir davr shoirlariga ilhom beradi. Yurakdagi his-tuyg'ularini so'zga olib chiqishi uchun asos bo'ladi. She'rning qofiyalanishida ijodkor o'ylagan ma'noni yuzaga chiqarishda tayanch bo'lib xizmat qiladi. Juda ko'p hollarda she'r tuzilmasi ushbu ko'chimlar atrofiga quriladi.

Ochil gulim, ayt o'zingma dardingni,  
Gulfurushlar qaydan bilsin qadringni.  
Yomg'irman deb yuzing silab, bargingni  
To'kib ketgan do'lmasmu u aldagan?..

Shoir o'zi guvoh bo'lgan aldangan qiz qismatini yoritishga harakat qiladi. Qachonlardir sevgida aldangan qiz bugun baxtiqaro bir jismga aylanib qolgan. Unda na mehr, na muhabbat, na nomus, na xursandchilik qolgan. Hayotda ko'lankaga o'xshab yashashni afzal bilgan. Shoir qizga ochil gulim deb murojaat qiladi. Barcha davr she'riyatida go'zal qizga gul obrazi sifatida qarash an'anaga aylangan. Shoir ushbu ko'chimni o'z she'riga olib kiradi. Hayotdagi razil kimsalarni "gulfurushlar" deb ataydi. Bunda shunday qizlarning baxtiga zomin bo'layotganlar nazarda tutiladi. Gulfurushlarga nisbatan band oxirida do'l ko'chimini ishlatish orqali ularning asl basharasini ochib tashlaydi. Do'l deganda ishq, muhabbat beradigan yoqimli yomg'ir emas, balki gulning bargini to'kadigan kuchli jala nazarda tutiladi. Ushbu bandda bir vaqtning o'zida gul, gulfurush, do'l ko'chimi qo'llangan va bu tushunchalar o'zlari yuzaga keltiradigan ma'no nuqtayi nazaridan barcha davrlar uchun umumiy tushuncha kasb etadi.

Bunday an'anaviy ko'chimlardan tashqari, zamonaviy she'riyatda kamyob, balki umumiy davr uchun yagona bo'lgan ko'chimlar ham uchrab turadi. Bunday ko'chimlar o'zining originalligi bilan boshqa ko'chimlardan tubdan ajralib turadi. Shoir ongida paydo bo'lishi, avvaldan rejalashtirilmaganligini hisobga olib favqulodda ko'chimlar deb ifodalashni ma'qul topdik. Favqulodda ko'chimlar o'zining individualligi bilan xarakter kasb etadi. Natijada, avvalgi she'riyatda muayyan bir tushunchani berish uchun ishlatilgan ko'chim o'rniga davr ruhiga mos yangi hodisa qo'llanadi.

Ne munchoq, u tengi yo'qdir, tizimsiz,  
Ne olchoq, u ruhi jonsiz – jisimsiz,  
Yillar bilan ich-ichingga ismsiz  
Cho'kib ketgan ko'lmasmu u aldagan...

Munchoq so'zi an'anaviy she'riyatda ko'zga, bolaga, ma'shuqaga nisbatan ishlatilganiga ko'p bor guvoh bo'lganmiz. Umuman olganda, munchoq ko'chimi asrlar davomida ijobiy xususiyatga ega bo'lgan tushunchalarni ifodalashga xizmat qilgan. Yuqorida aytib o'tganimizdek, favqulodda ko'chimlar o'zigacha bo'lgan an'anaga zid holda o'zining novatorlik xususiyatini ko'rsatishi mumkin. Bu bandda ham shoir bevafo, vijdotsiz yigitga nisbatan munchoq ko'chimini qo'llaydi. Munchoq so'zi an'anaviy tarzda ayollarga nisbatan ishlatiladi. Ammo bu o'rinda ko'chimning yigitga nisbatan ishlatilishining o'zigina o'zgachalik hosil qilyapti. Bandning oxirida esa "cho'kib ketgan ko'lmasmu" birikmasini ishlatadi. Bunday ifoda shoirning shaxsiy taassuroti bo'lib, boshqa shoirlarda uchramasligi bilan alohidalik kasb etadi. Insonga nisbatan "ko'l" ko'chimining qo'llanilishi favqulodda ko'chimlar terminini qo'llashimizga sabab bo'ladi. Bunda tashqi tasvirning ham o'rni bor. Bunda lirik qahramon o'zini o'rab turgan narsa-hodisalar va shart-sharoitlar ta'sirida fikrini yetkazadi. Bu usul o'ta mukammal bo'lmasa ham she'rning yorqin va ta'sirli chiqishini ta'minlaydi.

Ko'chimlarning bir ma'no va ko'p ma'no ifodalashini aniqlashiga ham ma'lum bir yutuqlarga olib keluvchi unsur sifatida qarash kerak. Albatta, o'xshatish, ko'chim, tashbehlar haqida gap ketganda bu tushunchalarning ma'no qirralarini aniqlashda muammolar yuzaga kelishi tabiiy jarayon. Bunda ma'lum bir ko'chimning umumiy ma'nosini emas, balki she'rda ifodalayotgan ma'noni qabul qilish ma'qul. Xususan metaforalar she'r tarkibida kelganda o'zining bosh maqsadi so'zni badiiy tasvir qilish, uning ma'no qirralarini yuzaga chiqarish uchun xizmat qiluvchi vosita hisoblanadi. "Adabiyotshunoslikdan ma'lumki, metafora istiora

atamasi bilan qo'llanishi va misrada bir so'zni bir necha ma'noda qo'llashga asos bo'lishi bilan ajralib turadi". Albatta, metaforalarning so'zni badiiy bo'yoqdorlik asosida ifodalash xususiyatidan kelib chiqib misra tarkibida shakliy, belgisiga ko'ra va harakatiga ko'ra ko'chim hosil qilishi mumkin. Tadqiqotimiz nuqtayi nazaridan yuqoridagi ikkita bobimizni umumiy ifodalagan holda metaforaning uch xil ko'rinishda ko'chim hosil qilishini kuzatamiz.

Shakliy o'xshashlik asosida hosil bo'lgan ko'chim o'zida holat va shaxsning tashqi ko'rinishini ifodalagan holda uning ichki kechinmasini tasvirlashga xizmat qiladi. Bunda morfologik va leksik vositalar birgalikda badiiyat hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Shakliy ko'chimda til grammatikasidan farqli ravishda badiiy nutqda kabi, misli, -ga, -day va boshqa qo'shimchalar qo'llanmaydi. Agarda leksemada shunday o'xshatishni ifodalovchi so'z va qo'shimchalar ishtirok etsa, u holda band tarkibidagi obraz ko'chim emas, balki o'xshatishning bir turi bo'lib qoladi. Buni Iqbol Mirzoning quyidagi she'rida ko'rishimiz mumkin:

Afsuski, shabboda sudragan xasman,  
Kiyim o'zimga tan, o'zim sarmastman,  
Ko'changizdan qaytib kuylab o'tmasman,  
Azal menga shuni bitgan, afsuski.

Bu o'rinda shoir o'zini xasga o'xshatadi. Bu ko'chimni qo'llashda shunchaki xas deb qo'ya qolmaydi, balki shabboda sudragan xasman deydi. Bilamizki, shabboda shamolning eng past esishi, bu esish kishilar va tabiatga faqat zavq va huzur baxsh etadi. Shoirning qalbi shunchalik ezilgan, ruhi shunchalik o'ziga bo'ysunmaski, natijada oddiy bir shabada ham uni uchirib ketishi mumkin. Lirik qahramon atrofni yaxshi anglolmaydi, chunki u muhabbatdan mast. Mast odam o'zini ushlay olmaganidek, shoir ham o'zini deyarli hech qayerda tutolmaydi. Bu orqali esa yengil shamolda uchib borayotgan xas va ruhi o'ziga bo'ysunmayotgan lirik qahramon tanasi orasida o'zaro shakliy o'xshashlik ko'z oldimizda gavdalanadi. Bu esa analogik o'xshatishning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi "Analogik o'xshatishlar asos va timsol uchun umumiy bo'lgan tashqi belgilarga asoslanadi"

Metoforalarning yana bir xususiyati bu belgining nomi boshqa bir narsaga ko'chirilishidir. Bunda ijod jarayoniga olib kirilayotgan obraz shoirning xayolida real hayotda ro'y berayotgan bir jarayonga o'xshatiladi va shoir bevosita shu jarayondan ta'sirlangan holda misrani ifodalaydi. Ko'chim turini hosil qilishda ishtirok etayotgan

leksemaning bir qarashda o'xshayotgan narsasiga joylashuv o'rni, rangi, tuzilishiga mos kelishi talab etiladi. Yana Iqbol Mirzo ijodidan kuzatishimizni davom ettiramiz:

Ko'z qarosi yurakdagi dog'lardan,  
Soch qirovi o'tli-o'tli ohlardan.  
Men do'stimni alqab so'z aytay desam,  
Alpomishlar bo'zlab chiqar chohlardan.

Yuqoridagi misradagi "soch qirovi" birikmasi metaforik belgili ko'chim hosil qilishga sabab bo'lmoqda. Soch qirovi, albatta, metaforani hosil qiladi. Biroq adabiyotshunoslikda ushbu metaforani bir necha xil usul bilan farqlash imkoniyati borki, bu o'quvchida badiiylik jihatidan yaxshi taassurot qoldiradi. Agar diqqat bilan e'tibor beradigan bo'lsak, qirov qarilikni ramziy ma'noda ifodalovchi qish faslida tushadi. Demak, ushbu qirov ham fasl, ham shaxs ko'rinishida qarilikni ifodalaydi. Ikkinchi jhati, qirov ko'pincha maysalarning ustiga tushadi. Shoir ayni paytda sochlarni ham maysaga o'xshatish orqali ajib bir go'zallik hosil qiladi. Bularning barchasi belgi orqali ko'chim turi hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Bunday holatga assotsiativ o'xshatish deb ham qaraymiz. "Assotsiativ o'xshatishlarda asos va timsol o'rtasidagi o'xshashlik ko'zga ayon tashlanib turmaydi. O'xshatish tasavvur va mantiqiy xulosalar natijasidagi tasavvur qiyosiga asosan yuzaga chiqadi".

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI!**

1. Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларида ўхшатиш. – Т.: Фан, 2003.
2. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр. 2010.
3. Юсуф М. Сайланма. – Т.: Шарқ. 2007.
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/she-riy-matnda-qo-llangan-metaforik-birliklarning-uslubiy-xususiyatlari-iqbol-mirzo-she-rlari-misolida>
5. <https://www.uforum.uz/printthread.php?t=5657&pp=40&page=9>
6. Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси – Т.: Фан, 2008.
7. Назар Эшонкул. Ижод фалсафаси. –Т.: Akademnashr, 2018.
8. Шукуров Н. Услублар ва жанрлар. – Т.: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973.